



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining  
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:  
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini  
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat  
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda  
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq  
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar  
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini  
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish  
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi  
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti  
sifatida ommaviy axborot vositalarining  
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy  
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy  
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati  
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini  
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**  
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**  
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**  
The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 342.4(045)(575.1)

# XALQCHIL DAVLAT QURISH, DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FUQAROLAR ISHTIROKINI KENGAYTIRISH MASALALARI

**Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,  
yuridik fanlar doktori, dotsent  
ORCID: 0000-0003-4372-7173  
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat qurilishi jarayoni hamda davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligini oshirishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq vazifalar ko'rib chiqiladi. Muallif unda yangi Konstitutsiyaga ko'ra xalqchil va xalqparvar davlat qurishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Shuningdek, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotini boshqarishdagi ishtiroki masalalari bo'yicha fikr yuritilib, asosiy e'tibor oxirgi 6-7 yilda ushbu yo'nalishda qabul qilingan huquqiy asoslarning mazmun-mohiyatiga qaratiladi. Ushbu islohotlarning tadrijiy yakuni sifatida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qoidalari ko'rsatilib, ulardagi asosiy me'yorlar, avvalo, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda ta'minlashga qaratilganligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** davlat boshqaruvi, konstitutsiya, hokimiyat, xalqchil, huquq, referendum.

## ВОПРОСЫ РАСШИРЕНИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В СТРОИТЕЛЬСТВЕ НАРОДНОГО ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ОБЩЕСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

**Хошимхонов Ахрор Муминович,**  
доктор юридических наук, доцент, проректор  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются задачи, связанные с расширением участия граждан в процессе государственного строительства и повышения эффективности государственного и общественного управления. Основное внимание автор уделяет анализу конституционно-правовых основ построения по-настоящему народного и заботящегося о его благополучии государства в соответствии с новой Конституцией. Также рассматриваются вопросы участия граждан в управлении государственной и общественной жизнью, акцентируя внимание на сути правовых основ, принятых в этом направлении за последние 6-7 лет. В качестве практического завершения этих реформ были указаны положения Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, в которых обосновано, что основные нормы направлены прежде всего на гарантирование и обеспечение прав и свобод человека.

**Ключевые слова:** государственное управление, конституция, власть, народный, закон, референдум.

## ISSUES OF EXPANDING CITIZENS' PARTICIPATION IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE PEOPLE'S STATE-BUILDING, STATE AND SOCIETY ADMINISTRATION SYSTEM

**Hoshimkhonov Ahror Muminovich,**

Deputy rector of Tashkent State University of Law  
Doctor of Law, Associate Professor

**Abstract.** *This article examines tasks related to the process of state building and increasing the participation of citizens in improving the efficiency of state and community management. The author focuses on analyzing the constitutional and legal foundations of building a people's and people-friendly state according to the new constitution. It also discusses the issues of citizens' participation in the management of state and community life, focusing on the essence of legal frameworks adopted in this direction in the last 6-7 years. As a gradual end to these reforms, the provisions of the new constitution of the Republic of Uzbekistan are shown, and it is justified that the main norms in them are primarily aimed at guaranteeing and ensuring human rights and freedoms.*

**Keywords:** *State administration, constitution, power, people's, law, referendum.*

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi demokratik islohotlar yo'lidagi huquqiy asosni va mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini belgilab berdi. Mamlakatimizning umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqishda keng jamoatchilik, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari, ziyolilar faol ishtirok etdi. Umumxalq muhokamalarida 220 mingdan ziyod taklif kelib tushgan bo'lsa, ularning har to'rttasidan bittasi loyihadan joy oldi desak, mubohlag'a bo'lmaydi. Ta'kidlash lozimki, uzoq taraqqiyot yo'lini tanlayotgan davlat o'z siyosiy-huquqiy maqomining barqaror bo'lishiga intiladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqimiz tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy maqomi o'zgarishini belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida **"Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat**

**oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz - kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham - kechagi O'zbekiston emas"**, - deb, O'zbekistonning muhim shiori-ni belgilab bergan edi.

Tarixan qisqa muddat ichida suveren O'zbekiston davlatchiligini barpo etishning huquqiy asoslari yaratildi hamda uni mustahkamlash yuzasidan institutsional islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda barqarorlik va xavfsizlik, qat'iy huquq-tartibot, fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari himoya qilinishi va eng avvalo, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi ta'minlandi, natijada xalq hokimiyatchiligi, ya'ni fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi roli ortdi.

Xalq hokimiyatchiligi - butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqqa tegishli degani. Konstitutsiyaga binoan, xalq hokimiyatini bevosita hamda o'zi saylab qo'yadigan organlari orqali amalga oshiradi. Xalq saylovlar yo'li bilan hokimiyatning vakillik organlarini shakllantiradi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumlar orqali jamiyat hamda davlat hayotining eng muhim masalalarini hal qiladi.

Konstitutsiyaning xalqchilligini belgilab beruvchi normalar to'g'risida gapirganda,

yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasiga kiritilgan o'zgartirish – O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanligi to'g'risidagi qoidani eslash zarur. Mazkur normadan xalqning davlat va jamiyat hayotidagi roli beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, referendum ham respublikada demokratiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 9-moddasida "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" degan qoida fuqarolarning jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal etishda bevosita ishtirokini kafolatlaydi. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslanganini yana bir karra yaqqol ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, referendum demokratiyaning eng muhim belgisi hisoblanadi, ya'ni referendum jarayonlari orqali mamlakatdagi demokratiya darajasi va ochiqlik siyosatiga baho berish mumkin. Shuningdek, referendumga demokratiyaning "to'g'ridan to'g'ri instituti" hamda xalq hokimiyatchiligining asosiy elementi deb ta'rif berish mumkin.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida ham davlatni xalqchil ekanligi namoyon bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur moddaga asosan, endilikda inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Ushbu qoidani

ham xalqchil prinsip sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Yana ushbu modda insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, qoida tariqasida, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga (regulation.gov.uz) jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtirilishi lozimligi to'g'risidagi qoidaning kiritilishi ham davlat boshqaruvida xalq ishtirokini yanada kengaytirgan muhim islohot bo'ldi, deb aytish mumkin.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Natijada fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ortdi. Misol uchun, fuqarolar bilan dialog vositalari rivojlanib, mamlakat Prezidentining virtual qabulxonasi, jamoatchilik tashabbuslari yagona platformasi – "meningfikrim.uz", normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portalini – "regulation.gov.uz" va davlat organlarining portallarini bunga misol qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning samaradorligini va aholining fuqarolik faolligini oshirishga yordam bermoqda. E'tibor qiladigan bo'lsak, birgina regulation.gov.uz portalini orqali shu kunga qadar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha 62 701 ta taklif fuqarolar tomonidan kelib tushgan bo'lsa (qabul qilingan takliflar 4 555 tani va rad etilgan takliflar 2 981 tani tashkil etib, 55 168 ta taklifga javob

berilmagan), “meningfikrim.uz” portaliga joylashtirilgan tashabbuslarning 6 412 tasi xalqimizga tegishli ekanligi davlat boshqaruvi da fuqarolar ishtiroki yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, konstitutsiyaning 37-moddasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligi belgilandi.

O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvning yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida 2022-yil 28-yanvarda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu strategiyaning muhim 7 ta yo‘nalishining birinchisi “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” bo‘lib, uni amalga oshirish uchun **birinchidan**, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, **ikkinchidan**, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining

institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish, **uchinchidan**, davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, bundan tashqari, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish va ta’sirchan jamoatchilik nazoratiga erishish maqsad qilib qo‘yilgan.

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish.

2-maqsad: Xalq deputatlari kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish.

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

4-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish.

5-maqsad: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma‘muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

7-maqsad: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

8-maqsad: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta‘minlash.

9-maqsad: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.

10-maqsad: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

11-maqsad: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

12-maqsad: Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish yo'li-da Konstitutsiyada bir qator yangi normalar mustahkamlab qo'yildi.

Birinchidan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Bunda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi, deya e'lon qilinarkan, unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravardan ortganini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, inson farovon yashashi, davlat barqaror rivojlanishi uchun samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi joriy qilinadi, parlamentarizmni kuchaytirish sari dadil qadam qo'yildi. Shuningdek xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga qaratilgan normalar belgilandi.

Xususan, parlament palatalarining vakolatlari qayta ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi, ikki palata ishida takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas'uliyat sohasi aniq belgilab qo'yildi.

Uchinchidan, hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilish instituti Konstitutsiyaviy normalar bilan bekor qilindi.

Mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo'linishi mamlakatda butun davlat boshqaruvi tizimini chuqur isloh qilish uchun asos bo'ladi. Shu asosda mahalliy kengash raisi bilan hokim lavozimini bir-biridan ajratishning huquqiy asoslari yaratildi.

To'rtinchidan, barcha masalalar yechimi chinakam xalq ovozi bo'lgan mahalla darajasiga tushiriladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgilab qo'yildi. Konstitutsiyada mazkur kafolatning belgilanishi mahallalarga o'z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni

hal etib borish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, aholi farovonligini ta'minlashga muhim imkoniyatlarni taqdim etdi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaga ilk marotaba XIII bob sifatida fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida 69–75-moddalarning kiritilishi va ular faoliyati kafolatlarining belgilanishi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Joriy yilda demokratik, xalqparvar davlat yaratish yo'lida yana bir muhim hujjat, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlashga xizmat qiladi. Strategiyada belgilangan asosiy yo'nalishlaridan biri xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan islohotlardir. Ushbu islohotlarni amalga oshirish maqsadida aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'larni 24 trillion so'mga yetkazish, mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish kabi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi mexanizmi belgilab qo'yilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i (SDSN) va xalqaro ekspertlar tomonidan 2023-yilda



e'lon qilingan BRM (SDG index) reytingida O'zbekiston 71,1 indeks bilan 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi (Bu natija 2022-yilga nisbatan 8 pog'onaga oshgan).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 16 yo'nalishida, boshqaruvning barcha bosqichlarida qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish belgilab qo'yilgan. Bu orqali biz barcha sohalarda fuqarolarimizni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, izchil jamoatchilik nazoratini yo'lga

qo'yish, qolaversa, har qanday jarayonlarni xalqimiz bilan bamaslahat olib borish yo'lidagi ishlarimizning asosini yaratib qo'yganmiz.

So'zim yakunida shuni aytib o'tmoqchiman, bugun O'zbekiston haqiqiy demokratik davlat tamoyili asosida o'z islohotlarini olib bormoqda. Bosh qomusimizdan boshlab har bir qabul qilinadigan qonun va qarorlar xalq bilan muloqot qilish, ularning fikrini eshitish orqali ochiqlik va shaffoflik tamoyili orqali olib borilmoqda. Shunday ekan, biz – fuqarolar ham ushbu jarayonlarda faol bo'laylik, o'zimizning huquqlarimiz va imkoniyatlarimizdan to'g'ri foydalangan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmaylik.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 12-son, 215-modda, 2003-y., 5-son, 67-modda.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 03/19/591/4130-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
6. [www.meningfikrim.uz](http://www.meningfikrim.uz)
7. [www.regulation.gov.uz](http://www.regulation.gov.uz)

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.